

11-Mavzu: Matnli obyektlarning shriftini, o'lchamlarini va rangini o'zgartirish. Slayd sarlavhasiga ishlov berish.

Reja:

- 1. Matnli obyektlarning shriftini, o'lchamlarini va rangini o'zgartirish.***
- 2. Sarlavha satri.***
- 3. Animasiyalar hosil qilish.***

Power Point oynasining asosiy elementlari quyidagilar:

1. Sarlavha satri. Bu satrda sistemali menyu tugmasi, dastur va fayl nomi hamda oynani boshqarish tugmalari o`rin olgan.

2. Menyu satri. Sarlavha satridan keyin menyu qatori joylashib, unda dasturda foydalanish mumkin bo`lgan barcha buyruqlar keltirilgan. Power Point dasturi menyulari quyidagilar:

Файл, Правка, Вид, Вставка, Формат, Сервис, Показ слайдов, Окно ва Справка.

3. Asboblar paneli. Keyingi qatorlarda Uskunalar paneli joylashgan. Bu panellarda eng ko`p ishlatiladigan buyruqlar piktogrammalar shaklida joylashtirilgan.

4. Ishchi soha. Bu ish ob'ekti hisoblanib, slaydni hosil qiladi.

5. Holatlar satri. Bu satrda bajarilayotgan ishlar to`g`risida ma'lumotlar berib borilishi bilan birga ba'zi tugmalar holati aks etadi.

Power Point dasturida taqdimot yaratish jarayoni shartli ravishda ikki bosqichga bo`linadi:

1. Taqdimotni loyihalashtirish va ma`lumotlarni kiritish;
2. Taqdimot va slaydlar animatsiya samaralarini hosil qilish.

Yangi taqdimot yaratishdan oldin yaratmoqchi bo`lgan taqdimot va slaydlarimizning tuzilishini ko`z oldimizga keltirishimiz lozim. Bu taqdimot yaratishda juda muhimdir.

Loyihalashtirish va ma`lumotlarni kiritish bosqichida dastlab albatta bitta yangi bo`sh taqdimot hosil qilish lozim. Power Point dasturini ishga tushirganda odatda 1 ta bo`sh slayddan tashkil topgan yangi taqdimot hosil bo`ladi. Agar bunday bo`lmasa, Файл menyusining Создать buyrug`i bosiladi. Natijada quyidagi yangi fayl yaratish paneli hosil bo`ladi:

Bu paneldan Новая презентация buyrug`i tanlanadi. Shundan so`ng ekranda yangi bo`sh slayd hosil bo`ladi. O`ng tomonda esa Slayd maketlari (Разметка слайда) paneli paydo bo`ladi:

Bu panelda 20 dan ortiq turli xil maket ko`rinishlari joylashgan. Maketlar har xil ob`ektlardan tashkil topishi mumkin. Masalan, 1 ta slayd matn va rasm, matn va grafik, matn va rasm, matn, jadval va animatsiyali ob`ekt va hokazolardan tashkil topishi mumkin. Umuman olganda slaydga matn, rasm (kartina) grafiklardan tashqari turli xil ob`ektlar, masalan, jadval, diagrammalarning turli ko`rinishlari, surat, animatsiyali ob`ektlar, audio va video ma`lumotlar va boshqa ma`lumotlarni joylashtirish mumkin.

Har doim Вставка menyusining Создать слайд buyrug`i orqali taqdimotga yangi bo`sh slayd qo`shish mumkin.

Slayd maketlari panelidan joriy slaydning umumiy maketini o'zgartirishimiz mumkin. Buning uchun kerakli slayd tanlanib, Slayd maketlari panelidan kerakli ko'rinishdagi maket tanlanadi.

Hosil qilingan bo'sh slayd ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Buning uchun namunaviy yozuv maydonchasi ustida sichqonchanning chap tugmasi bir marta bosiladi. Natijada namunaviy yozuv yo'qolib, uning o'rnida ma'lumot yozish uchun kursor paydo bo'ladi. Kerakli ma'lumot kiritilib Enter tugmasi bosiladi.

Boshqa ma'lumotlar ham kiritilib bo'lingandan so'ng slaydga biror rangdagi fon berish ham mumkin. Buning uchun Формат menyusining Фон buyrug'i bosiladi. Shu tariqa boshqa slaydlar ham yaratib chiqiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, barcha slaydlarga birdaniga fon berish ham mumkin. Buning uchun Фон buyrug'i orqali ochilgan oynadan rang tanlangach, Применить buyrug'ini emas, Применить ко всем buyrug'ini bosish lozim.

Slaydlarga bunday fon berish o'rniga tayyor rang va bezakli shablonlarni qo'llash ham mumkin. Buning uchun Формат menyusining Оформление слайда buyrug'i bosiladi. Natijada ekranning o'ng tomonida Шаблоны оформления панели ochiladi. Bu yerda fon uchun turli tayyor bezakdagi shablonlar mavjud. Ularning ixtiyoriysi tanlanganda shablon avtomatik ravishda slaydlarga qo'llaniladi.

Анимациялар ҳосил қилиш.

Taqdimot loyihalashtirib bo'lingandan so'ng taqdimot yaratishning 2-bosqichi, ya'ni animatsiya samaralarini (effektlarini) hosil qilish bosqichiga o'tiladi.

Animatsiya samaralari Показ слайдов menyusining buyruqlari orqali hosil qilinadi.

Показ слайдов menyusi buyruqlari va ularning vazifalari quyidagilar:

Эффекты анимации buyrug'i orqali slaydlarga tayyor formatdagi animatsiya samaralarini qo'llash mumkin. Buning uchun Эффекты анимации buyrug'i orqali ochilgan o'ng tomondagi Эффекты анимации panelidagi tayyor animatsiya samaralari namunalaridan birini tanlash kifoya. Animatsiya slaydga qanday qo'llanilganligini ko'rish uchun Эффекты анимации oynasining Просмотр buyrug'ini bosib ko'rish lozim. Shuni eslatib o'tish kerakki, slaydga animatsiya samaralarini qo'llayotganda albatta kerakli slayd belgilangan bo'lishi lozim.

Настройка анимации buyrug'i. Doimo Эффекты анимации buyrug'i orqali o'rnatilgan animatsiya samaralari foydalanuvchi didiga mos kelmasligi mumkin. Bunday hollarda albatta Настройка анимации buyrug'idan foydalangan ma'qul. Bu buyruq orqali slaydning har bir elementiga alohida animatsiya samaralarini qo'llash mumkin. Buyruq bosilganda o'ng tomonda Настройка анимации панели ochiladi. Joriy slaydning kerakli elementi yoki elementlari belgilanib, Добавить эффект buyrug'i bosiladi. Natijada navbatdagi menyu buyruqlari ochiladi.

Bu buyruqlar orqali tanlangan elementning paydo bo'layotgan, paydo bo'lgandan keyingi, yo'qolayotgan holdagi animatsiya samaralarini o'rnatish mumkin. Animatsiya samaralarini o'rnatayotganda albatta tartib bilan, ya'ni dastlab elementning kirib kelishi, oxirida elementning chiqib ketish parametrlarini o'rnatish maqsadga muvofiq. Yaratilgan animatsiyalar Настройка анимации oynasida ro'yhatga olib boriladi.

Uyga vazifa: Power Point oynasining asosiy elementlarini o'rganish.

